

VIII. XIZMATLAR

Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatda olib borilayotgan bozor islohotlari jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal qilishda xizmat ko‘rsatish sohasining rolini oshirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Xizmatlarning turliligi aholining katta qismini hayot sifatini va farovonligini yaxshilash imkonini beradi.

Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo‘yicha ko‘rsatkichlari

(2023- yilning yanvar–iyun holatiga)


	mlrd. so‘m	O‘sish surati, %	Jamiga nisbatan, %
Xizmatlar-jami	12 417,4	106,3	100,0
<i>shu jumladan asosiy turlari bo‘yicha:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	669,9	121,2	5,4
moliyaviy xizmatlar	2 752,4	103,3	22,2
transport xizmatlari	2 254,9	101,5	18,2
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>			
yashash va ovqatlanish xizmatlari	307,5	106,2	2,5
savdo xizmatlari	3 669,9	106,7	29,6
ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar	280,1	105,9	2,3
Ta’lim sohasidagi xizmatlar	617,1	130,3	4,9
sog‘lijni saqlash sohasidagi xizmatlar	249,8	106,0	2,0
ijara xizmatlari	227,0	100,9	1,8
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar	314,6	101,1	2,5
shaxsiy xizmatlar	603,4	105,2	4,8
Me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	108,6	94,8	0,9
boshqa xizmatlar	362,2	107,4	2,9

Xizmatlar tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari (29,6 %), moliyaviy xizmatlar (22,2 %), transport xizmatlari (18,2 %) tashkil etgan.

Xizmatlar umumiy hajmida past ulushlarni me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (0,9 %), ijara xizmatlari xizmatlari (1,8 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2,0 %) tashkil etgan.


2023- yilning yanvar-iyun holatiga xizmatlar tarkibi

(jamiga nisbatan %da, katta ulushga ega bo'lganlar)




Xizmatlar tarkibida eng katta ulush savdo xizmatlari (jami xizmatlarning 29,6 %), moliyaviy xizmatlar (22,2 %), transport xizmatlari (18,2 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,4 %) hissasiga to'g'ri keldi.

2023- yil yanvar-iyun oylarida ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd.so'm




Joriy yilning yanvar - iyun oylarida eng yuqori hajm savdo xizmatlari 3 669,9 mlrd. so'm, moliyaviy xizmatlar 2 752,3 mlrd.so'm, transport xizmatlari 2 254,9 mlrd.so'm, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 669,9 mlrd. so'mni tashkil etganini ko'rish mumkin.

2023- yil yanvar-iyun oylarida yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar tarkibi, %



2023-yil yanvar-iyun oylarida yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar hajmi Farg‘ona viloyatida 307,5 mlrd.so‘mni tashkil etdi. Shundan, yashash bo‘yicha xizmatlar 46,9 mlrd.so‘m, oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta’minalash bo‘yicha xizmatlar 260,6 mlrd.so‘mni tashkil etgan.

2023- yil yanvar-iyun oylarida transport bo‘yicha xizmatlar tarkibi, % da




2023-yil yanvar-iyun oylarida transport xizmatlari hajmi Farg‘ona viloyatida 2 254,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Shundan, avtotransport xizmati 208,5 mlrd.so‘mni, jami transport xizmatlarining 92,4 %ini tashkil etadi.

Hududlar kesimida ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko‘rsatkichlari
(2023- yilning yanvar-iyun oylarida)

	Jami			Aholi jon boshiga	
	mlrd.so‘m	2022- yil yanvar-iyun holatiga nisbatan %da	jami xizmatlar hajmiga nisbatan %da	ming so‘m	2022-yil yanvar- iyun holatiga nisbatan %da
Farg‘ona viloyati	12 417,4	106,3	100,0	3 107,8	104,1
<i>shaharlar:</i>					
Farg‘ona	4 391,0	106,3	35,4	13 877,9	101,0
Qo‘qon	1 830,6	106,6	14,7	6 001,8	91,1
Quvasoy	244,5	105,1	2,0	2 459,6	102,8
Marg‘ilon	1 085,5	106,3	8,7	4 382,4	104,5
<i>tumanlar:</i>					
Oltiariq	547,7	106,3	4,4	2 436,4	104,1
Qo‘shtepa	274,8	105,9	2,2	1 342,0	103,1
Bag‘dod	275,2	105,8	2,2	1 201,8	103,7
Buvayda	465,7	105,6	3,8	1 918,2	103,2
Beshariq	325,1	107,3	2,6	1 359,1	105,5
Quva	356,4	105,9	2,9	1 310,7	104,0
Uchko‘prik	442,4	106,4	3,6	1 863,7	106,9
Rishton	339,9	106,2	2,7	1 593,4	104,1
So‘x	158,1	107,1	1,3	1 921,0	105,2
Toshloq	320,9	106,4	2,6	1 490,7	104,1
O‘zbekiston	273,7	105,5	2,2	1 181,3	112,6
Farg‘ona	389,6	105,5	3,1	1 787,0	107,5
Dang‘ara	277,2	106,7	2,2	1 595,6	111,7
Furqat	195,3	106,3	1,6	1 562,1	104,0
Yozyovon	223,8	106,8	1,8	1 899,8	104,5


Hududlar kesimida xizmatlarning eng yuqori o‘sish sur’ati Beshariq tumaniga (107,3%) va So‘x tumaniga (107,1 %) to‘g‘ri keldi. Viloyat bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlarning yuqori ulushlari Farg‘ona shahri (35,4 %), Qo‘qon shahri (14,7 %), Marg‘ilon shahri (8,7 %), Oltiariq (4,4 %) va Buvayda (3,8 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Ko‘rsatilgan xizmatlarning eng past ulushlari So‘x (1,3 %), Furqat (1,6 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

2023- yilning yanvar-iyun holatiga xizmatlar sohasida ulushi katta bo‘lgan hududlar
(jamiga nisbatan %da)



2023-yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 3 107,8 ming so‘mga teng bo‘ldi. Uning o‘sish sur’ati esa o’tgan yilga nisbatan 104,1 %ni tashkil etdi.

2023- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga ko‘rsatkichlar



Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan eng katta xizmatlar hajmi Farg‘ona (13 877,9 ming so‘m), Qo‘qon (6 001,8 ming so‘m) va Marg‘ilon (4 382,4 ming so‘m) shaharlariida qayd etildi. Shuningdek, Quvasoy shahri (2 459,6 ming so‘m), Oltiariq (2 436,4 ming so‘m) va Buvayda (1 918,2 ming so‘m) tumanlarida ham aholi jon boshiga xizmatlar hajmi salmoqli bo‘ldi.

Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlarning eng past ko‘rsatkichi O‘zbekiston tumanida (1 181,3 ming. so‘m) kuzatildi, o‘sish sur’ati 112,6 %ni tashkil etdi.